

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING OILAVIY NIZOLARNING KELIB CHIQUISHI SABAB VA SHAROITLARINI BARTARAF ETISH BO'YICHA FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ergashev Sardorbek Farhod o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi 309-guruh kursanti

*Ilmiy rahbar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasini
o'qituvchisi, kapitan B.O.Gadoymirodov*

Аннотация: В данной статье говорится об организационно-правовой основе деятельности инспектора по профилактике по устранению причин и условий возникновения семейных конфликтов..

Ключевая слова: Семейные споры, семейные отношения, национальное право, международное право.

Annotation: This article talks about the organizational legal basis of the activities of the prevention inspector to eliminate the causes and conditions of the origin of family conflicts.

Key words: Family disputes, family relations, national law, international law.

Kalit so'zlar: Oilaviy nizolar, oilaviy munosabatlar, milliy qonunchilik, xalqaro qonunchilik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining oilaviy nizolarning kelib chiqishi sababi va sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari haqida so'z boradi

So'nggi vaqtga kelib jamiyatning eng asosiy qatlami bo'lmish oila sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va davlatimizning oilalarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, bo'yicha olib borayotgan islohotlari rivoj topib bormoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 67-68-moddalarida ham "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Onalik, bolalik va otalik davlat muhofazasidadir" deb belgilanib qo'yilganligining o'zi ham oilaning naqadar muqaddas ekanligidan dalolat beradi. Oila-kichik vatan deb xalqimiz bejiz aytmagan, negaki davlatimizda har bir oila tinch va farovon ekan mahallamiz tinch, mahalla tinch ekan yurtimiz tinch va omon bo'ladi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari tomonidan bu sohada keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish boirasida ko'plab sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Oilaviy nizolarning kelib chiqishi sabab va sharoitlarini bartaraf etish faoliyatining huquqiy asoslari 2 ta katta guruhni, ya'ni xalqaro va milliy normativ hujjatlarni tashkil qiladi:

- 1) Xalqaro normativ-hujjatlarga

- “Inson huquqlari umumjashon deklaratsiyasi”
 - “Ta’lim sohasidagi kamsitishga qarshi kurashish to’g’risida”gi Konvensiya
 - “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risida”gi xalqaro Pakt
 - “Xotin-qizlarni huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to’g’risida”gi Konvensiya
 - “Bola huquqlari to’g’risida”gi Konvensiya
- 2) Milliy qonunchilik
- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
 - O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi
 - O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi Kodeksi
 - O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi
 - O‘zbekiston Respublikasi 2008 yil 07 yanvarda qabul qilingan «Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida»gi Qonuni;
 - O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrda qabul qilingan «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida»gi Qonuni.
 - O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 mayda qabul qilingan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida»gi Qonuni;
 - O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to’g’risida»gi Qonuni;
 - O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to’g’risida»gi Qonuni;
 - O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida»gi Qonuni;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoni;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi PF-5106 sonli «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to’g’risida»gi Farmoni;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-sonli «Hotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash va oila institutini mustaxkamlash coxasidagi faoliyatini tubdan takomillash chora tadbirlari to’g’risida»gi Farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-sonli «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PF-6196-sonli «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi Farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2883-sonli «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PQ-2896-sonli «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PQ-3808-sonli «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi PQ-3827-sonli «Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rluk ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24dekabrdagi PQ-4075-sonli «Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etishto‘g‘risida»gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050-sonli «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevraldagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan chiqariladigan rasmiy ogohlantirish shaklini hamda uni chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 60-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 122-moddasida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni ta’minlashdan bo‘yin tovlash, 123-moddasida esa ota-onani moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik masalalari

keltirib o'tilgan. Bundan tashqari boshqa moddalarda ham bu kabi ijtimoiy xavfli qilmishlar keltirib o'tilgan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 47-moddasida bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmagaligi uchun tegishli tartibda ota-onasi ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi boshqa modda dispozitsiyalarida ham oiladagi nizolarni xal etishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" qonunining maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur qonunning 23-moddasida tegishli hududda tazyiq va zo'ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun ma'sul bo'lgan ichki ishlar organining mansador shaxsi tazyiq va zo'ravonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida himoya orderini o'ttiz kun muddatgacha berishi belgilangan.

Qonunning 26-moddasi bilan himoya orderida qayd etiluvchi cheklovlar belgilangan bo'lib, ular:

- tazyiq o'tkazishni va zo'ravonlik sodir etishni taqiqlash;
- tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasiga yo'l qo'yiladi);
- tazyiq o'tkazilgan va zo'ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo'lishini taqiqlash;
- tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplash, shuningdek ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklatish;
- tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki unda ko'rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabr kuni qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunini ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 yanvar kuni «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur

qaror bilan 2 ta nizom tasdiqlandi.

2023-yil 11-aprel kuni qabul qilingan “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829 sonli qonun bu boradagi islohotlarni yanada rivojlanishiga xizmat qildi. Ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o‘z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo‘llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo‘yuvchi o‘zgartirishlar kiritildi. Shuningdek mazkur qonun xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo‘ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari faoliyatining mustahkam huquqiy asosini yaratadi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 18 fevralda aholini osoyishtaligini ta‘minlash, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, nuroniylar ijtimoiy faolligini oshirish, mahallani jinoyatchilikdan holi hududga aylantirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida «Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 5938-sonli farmoni qabul qilindi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg‘armasi va mahallalar faollarining har bir mahallada «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy etildi. Mazkur tizim quyidagi yo‘nalishlarni nazarda tutadi:

- jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish;
- xotin-qizlar ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma‘naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish;

- mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo‘lga qo‘yish;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari va ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarining roli va mavqeini yanada oshirish, mustaqilligi hamda vakolatlarining amaliy samaradorligini ta‘minlash;
- sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda xodimlarning mehnatini munosib rag‘batlantirish va moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash.

Ichki ishlar organlari inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning buzilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda o‘z vaqtida bartaraf etish borasidagi faoliyati samarali tashkil etilishini ta‘minlash borasidagi ishlarni to‘g‘ri tashkil etishi birinchidan, inson huquq va erkinligini ta‘minlash, ularni buzilishini oldini olishga, ikkinchidan, inson huquqlari buzilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olishga, uchinchidan oilada zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bu kabi qabul qilinayotgan normativ-hujjatlar oila sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish, profilaktika inspektorining oilaviy nizolarni o‘z vaqtida bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarning bir namunasi bo‘lib kelgusida ushbu sohani keng takomillashtirish, yuzaga kelayotgan muammolarni har tomonlama hal etishda muhim zaruriy ko‘nikma bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi darsligi. Toshkent 2021
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 25-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.12.2023 qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son farmoni
4. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P. 3. Deutsch, M. (1973). Konkretning echimi: Konstruktiv va halokatli jarayonlar. Nyu-Xeyven, KT: Yel universiteti matbuoti.
5. To‘ychiyeva G.U. – filologiya fanlari doktori (DSc), Norqulov H.D. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Turmush qurgan yosh kelinlarni oilaviy hayotga tayyorlash” bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua. T.:2021,269-bet
6. <https://uzreport.news/society/ozbekistonda-10-oy-davomida-32-014-nafarxotin-qizlar-himoya-orderi-berish-orqali-davlat-h>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-nizolar-turlari-va-vujudga-kelishsabablari>